

MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLARI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH

Djumanov Sayitmurod Alimbekovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Moliyaviy hisob va hisobot” kafedrası dotsenti, PhD

Annotatsiya

Maqolada mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlarni optimallashtirish, shuningdek, xarajatlarni boshqarish tizimini takomillashtirish, xarajatlarni boshqarishning ustuvor yo‘nalishlarini tanlash hamda xarajatlar bo‘yicha chetlanishlarning oldini olish kabi masalalar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, tannarxni aniqlashdagi mavjud muammolar yuzasidan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tannarx, mahsulot ishlab chiqarish, buxgalteriya hisobi, boshqaruv hisobi, moliyaviy natijalar, xarajatlar, sof foyda, xomashyo.

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы оптимизации затрат, включаемых в себестоимость продукции, а также совершенствования системы управления расходами, выбора приоритетных направлений управления затратами и предотвращения отклонений по расходам. Кроме того, разработаны научные предложения и рекомендации по устранению существующих проблем в определении себестоимости.

Ключевые слова: себестоимость, производство продукции, бухгалтерский учет, управленческий учет, финансовые результаты, расходы, чистая прибыль, сырье.

Abstract

The article examines the optimization of costs included in the production cost of goods, as well as the improvement of the cost management system, the selection of priority directions in cost management, and the prevention of cost deviations. In addition, scientific proposals and recommendations have been developed to address existing issues in determining product cost.

Keywords: cost price, production of goods, accounting, management accounting, financial results, expenses, net profit, raw materials.

KIRISH

Mamlakatimizda ishlab chiqarish faoliyatini yanada rivojlantirish, hududlarning joylashuvi va resurslar bilan ta‘minlanganlik holatiga ko‘ra ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatishni tashkil etish masalalariga katta ahamiyat qaratilmoqda. Bu borada iste‘mol mahsulotlarini ishlab chiqarish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Asosiy iste‘mol mahsulotlaridan biri bo‘lgan don va un mahsulotlarini yetishtirish hamda ishlab chiqarish masalasi hukumatimizning doimiy e‘tiboridadir.

Mamlakatimizda 2022-yil 1-iyundan boshlab don va un mahsulotlarini birja savdolari orqali erkin narxlarda sotish yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-maydagi PQ-262-son “G‘allani yetishtirish va sotishda bozor tamoyilini joriy

etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori¹ bilan g‘allani davlat tomonidan sotib olish va sotishda bozor narxlariga o‘tilib, g‘allachilik klasterlari hamda fermerlarga bug‘doyni bozor narxida to‘liq erkin sotish huquqi berildi.

Bu, o‘z navbatida, fermerlarning klasterlar uchun o‘z mahsulotlarini bozor narxida sotishlariga imkon yaratdi. Yangi tizim un va non mahsulotlari narxiga ham ta’sir ko‘rsatdi. Bunda fermer davlat xarajatlarining bir qismini o‘z zimmasiga olib, tadbirkorga bug‘doyni arzon narxda bermaydi. Ishlab chiqaruvchilar bug‘doy va un mahsulotlarini birja orqali erkin narxlarda xarid qilib, tayyor mahsulot narxini ham xarajatlaridan kelib chiqqan holda mustaqil belgilaydi. Shu bilan birga, ayrim tadbirkorlar bundan foydalanib, narxlarni keskin oshirib yuborish ehtimoli ham mavjud.

Shu bois, davlat rahbarining topshirig‘iga asosan yangi tizimning shaffof, to‘laqonli va adolatli ishlashini nazorat qiluvchi Bosh prokuror boshchiligidagi Respublika shtabi tuzildi. Hozirda 21 ta vazirlik va idora rahbarlaridan iborat ushbu shtabning barcha hududlarda hududiy bo‘limlari to‘liq tarkibda faoliyat olib bormoqda. Ular har kuni g‘alla sotib olish va sotishda bug‘doy yetishtiruvchilarning manfaatdorligini ta’minlash, ichki bozorda un va don mahsulotlari narxining o‘sishi hamda taqchilligining oldini olish, shuningdek, yuzaga kelgan muammolarni tezkor bartaraf etish ustida ish olib bormoqda.

Bunday chora-tadbirlar yakunda mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytirish imkoniyatini yaratishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida²yuqorida belgilangan dolzarb maqsadlar o‘z ifodasini topgan. Ta’kidlash lozimki, bugungi kunda yurtimizda ishlab chiqarish, turizm, savdo va xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan.

Mamlakatimizda ham, xorijda ham xomashyo materiallariga bo‘lgan ehtiyoj kundankunga ortib bormoqda. Shu bois, korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatli va arzon bo‘lishi, shuningdek, xorijiy mamlakatlarga mahsulot eksportini kengaytirish imkoniyatlarini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatimizda ishlab chiqarish bilan bog‘liq xarajatlarni optimallashtirish, mahsulot tannarxini hisoblashning zamonaviy usullaridan keng foydalanish va uni yanada takomillashtirish bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tannarx komponentlari haqida klassik accounting maktabi, xususan Horngren va Drury asarlarida bevosita materiallar, bevosita mehnat hamda ishlab chiqarishning umumiy xarajatlari (indirect materials, indirect labour, amortizatsiya, texnik xizmat ko‘rsatish va energiya sarfi) asosiy elementlar sifatida ko‘rsatilgan. Shu bilan birga, mahsulotning umumiy qiymatiga qo‘shimcha ravishda taqsimlovchi xarajatlar — marketing, tarqatish va ma’muriy xarajatlar — ham kiritilishi lozimligi Kaplan va Cooper ishlarida ta’kidlangan.

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-maydagi PQ-262-son “G‘allani yetishtirish va sotishda bozor tamoyilini joriy etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/docs/-6038081>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

Xarajatlarni aniqroq hisoblash va qaror qabul qilish uchun ko‘plab tadqiqotchilar faoliyatga asoslangan xarajatlash (Activity-Based Costing — ABC) yondashuvini ilgari surgan. Bu konsepsiya Cooper va Kaplan tomonidan asoslangan bo‘lib, u xarajatlarni aniq xizmat ko‘rsatish bosqichlari va jarayonlarga bog‘lash orqali mahsulot bo‘yicha marjalarni aniqlik bilan baholash imkonini beradi. “Lean” yondashuvlari va qiymat oqimlarini optimallashtirish masalalari Womack va Jones ishlarida keng yoritilgan; ular ortiqcha chiqindilarni (waste) kamaytirish hamda jarayonlarni soddalashtirish orqali bir birlik tannarxini pasaytirish imkoniyatlarini ko‘rsatgan. Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilishda qiymat muhandisligi (value engineering), Kaizen va JIT (Just-In-Time) tizimlari ham tannarxni pasaytirish vositasi sifatida keng qo‘llanilmoqda. Bu haqda xalqaro adabiyotlarda, xususan Porter va Christopher tomonidan dalillar keltirilgan.

Mahsulot tannarxini optimallashtirish bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar raqamli transformatsiya va analitik usullarni joriy etish zarurligini ta’kidlaydi. Masalan, ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish, ERP tizimlari va IoT texnologiyalari orqali real vaqt rejimida kuzatuvlarni amalga oshirish tannarxni kamaytirish hamda o‘zgaruvchan xarajatlarni boshqarish imkonini beradi. Bu nuqtai nazar ICT va logistik optimallashtirish bo‘yicha Christopher hamda soha amaliyotiga oid maqolalarda keng yoritilgan. Resurslardan samarali foydalanishni baholashda samaradorlik ko‘rsatkichlari va komparativ tahlil usullari muhim o‘rin tutadi. Charnes, Cooper va Rhodes tomonidan ishlab chiqilgan Data Envelopment Analysis (DEA) texnikasi korxonalararo samaradorlikni baholash hamda tannarxni qaysi komponentlar orqali kamaytirish mumkinligini aniqlashda qo‘llaniladi.

Mahalliy ilmiy tadqiqotlar va amaliyotlar esa mahsulot tannarxiga davlat va regulyativ omillar, soliq tizimi hamda mehnat sharoitlari orqali ta’sir ko‘rsatilishini ko‘rsatadi. Milliy statistik ma’lumotlar va sanoat tahlillari (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi) ishlab chiqarish sohalarining xarajat tuzilmasini sektorial jihatdan aniqlashda muhim ma’lumot manbai sifatida xizmat qiladi. Mahalliy iqtisodchilardan A.E. Ergashevning ishlari boshqaruv hisobi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga doir tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Adabiyotlar shuni ham ko‘rsatadiki, tannarxni optimallashtirish nafaqat texnik va iqtisodiy choralarni, balki tashkilot madaniyatini va menejment tizimining uzluksiz takomillashtirilishini ham talab etadi. Target costing va life-cycle costing yondashuvlari mahsulot dizayni bosqichidan boshlab tannarxlarni nazorat qilishni rag‘batlantiradi. Bu esa bozor talabiga mos va raqobatbardosh narx siyosatini shakllantirishga xizmat qiladi (Porter, Kaplan).

Umuman olganda, xalqaro va mahalliy adabiyotlar integratsiyalashgan yondashuvni — aniq hisoblash metodlarini (ABC, DEA), ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishni (lean, JIT), raqamli vositalarni joriy etishni hamda strategik menejmentni — mahsulot tannarxini samarali kamaytirish uchun zarur deb hisoblaydi.

METODOLOGIYA

Korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlarni hisobga olish va bu jarayonni takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan izlanishlar

davomida ma'lumotlarni guruhlash, ekspert xulosalaridan foydalanish, qiyosiy tahlil, mantiqiy fikrlash va boshqa ilmiy usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, mahsulot tannarxini shakllantirishga katta ahamiyat qaratish lozim. Bu kelgusida mahsulotning bozorda sotilishini ta'minlaydi. Tannarxning yuqori bo'lishi bozorda mahsulotning sotilish rentabelligini pasaytiradi. Shuningdek, muhim iste'mol mahsulotlaridan biri bo'lgan uy mahsulotlari narxini belgilash ham muhim masalalardan biridir.

G'allani qabul qilish va uni sotishda joriy etilgan bozor mexanizmlari, avvalo, aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda g'alla yetishtiruvchilarni iqtisodiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida don va un mahsulotlarining bozordagi narx-navosini endilikda davlat belgilamaydi — bu jarayonni bozor talabi o'zi belgilaydi.

Mazkur jarayonda mamlakatimizning asosiy vazifasi taklifni ko'paytirish, tadbirkorlarning bozor iqtisodiyotida faol ishtirok etishiga sharoit yaratish, birja savdolarida ishtirok etib mahsulotini erkin sotish va xarajatlarini kamaytirishga ko'maklashishdan iboratdir. Chunki bozorda talabga nisbatan taklif ko'p bo'lsa, narx barqarorligi ta'minlanadi hamda sog'lom raqobat muhiti shakllanadi.

Har bir korxonada maksimal foyda olish vazifasi turadi. Buni hal etishning ikki yo'nalishi mavjud: sotish hajmini oshirish yoki xarajatlarni kamaytirish. Hozirgi kuchli raqobat va cheklangan talab sharoitida ikkinchi yo'nalish — xarajatlarni kamaytirish — afzalroq ko'rinadi. Korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirishning maqsadi nafaqat xarajatlarni qisqartirish, balki ularning samaradorligini oshirishdan iboratdir.

Buxgalteriya hisobida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- moliyaviy natijalarni hisobga olgan holda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun subyekt ma'muriyatini zarur va yetarli ma'lumotlar bilan ta'minlash;
- xarajatlardan chetga chiqishlarni aniqlash maqsadida haqiqatda sarflangan xarajatlarni kuzatish va nazoratni o'rnatish, ularni me'yoriy va rejalashtirilgan hajmlar bilan taqqoslash hamda kelgusidagi iqtisodiy strategiyani shakllantirish;
- ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarni baholash va moliyaviy natijalarni hisoblash uchun ularning tannarxini aniqlash.

Korxonada mahsulotlarini narxlashtirishda xomashyo va materiallar, sotib olingan hamda ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlar, yoqilg'i, issiqlik va elektr energiyasi, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi, ishlab chiqarish xodimlarining ish haqi, fondlarga ajratmalar hamda boshqa ishlab chiqarish xarajatlari, shuningdek, sotish xarajatlarining yig'indisi mahsulot ishlab chiqarish tannarxini tashkil etadi.

Ishlab chiqarish tannarxini hisoblashning soddalashtirilgan formulasi quyidagicha ifodalanadi:

$$C=M + A + W + P$$

bu yerda, M — materiallar, A — amortizatsiya, W — ish haqi, P — boshqa xarajatlar.

Ma'lumki, har bir sohada natijadorlikni ta'minlash va belgilangan qoidalarga rioya etish kabi masalalarning ijrosini tartibga solish uchun me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqiladi. Xususan, mamlakatimizda ham xarajatlarni hisobga olish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan va ular bosqichma-bosqich takomillashtirib borilmoqda.

Ushbu me'yoriy hujjatlar sirasiga O'zbekiston Respublikasi 2016-yil 13-aprel O'RQ-404-son "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni¹, 2019-yil 30-dekabrda qabul qilinib, 2020-yil 1-yanvardan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining "Soliq kodeksi"², shuningdek, 1999-yil 5-fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 54-son qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Qarori³ va boshqa tegishli hujjatlarni kiritish mumkin.

Xarajatlar uslubiga nazar soladigan bo'lsak, xarajatlar to'g'ri (bevosita) va egri (bilvosita) turlarga bo'linadi. To'g'ri xarajatlarni iqtisodiy jihatdan asosli usul bilan obyektga bevosita o'tkazish mumkin. Egri xarajatlar esa obyekt bilan bevosita bog'liq bo'lmay, odatda bir nechta obyektga taalluqli bo'ladi.

Shuningdek, xarajatlarni ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ko'ra ham tasniflash mumkin. Bunda o'zgaruvchan va doimiy xarajatlar ajratib ko'rsatiladi. O'zgaruvchan xarajatlarning umumiy summasi ishlab chiqarish hajmiga to'g'ri mutanosib ravishda o'zgarib turadi. Doimiy xarajatlarning umumiy summasi esa ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi bilan o'zgarmay qoladi.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxining arzon bo'lishi tannarxni hisoblashda kalkulyatsiyaning zamonaviy usullaridan foydalanishni taqozo etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish masalalarini o'rganish jarayonida mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar, ularning mazmun-mohiyati, turlari, guruhlanishi hamda mahsulot tannarxini tahlil qilish masalalari haqida fikr yuritildi.

Shuningdek, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirishda belgilangan asosiy vazifalarga nisbatan quyidagi yechim va mulohazalar ilgari surildi:

- ishlab chiqarishda moddiy xarajatlar va ularga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash zarur, bu tannarxning oshishini oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi;
- sifatli mahsulot ishlab chiqarish korxonaning asosiy maqsadi bo'lishi lozim, chunki sifatning narxdan ustunligi bozorda raqobat ustunligini beradi;

¹ O'zbekiston Respublikasi 2016-yil 13-aprel O'RQ-404-son "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni <https://lex.uz/uz/docs/-2931253>

² O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabr. "Soliq kodeksi", <https://lex.uz/docs/-4674902>

³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevral 54-son "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/docs/-264422>

- mahsulot tannarxining bozor bahosiga nisbatan arzonroq bo'lishi muhimdir. Bunda mahsulot tarkibidagi xomashyo va materiallarning arzon, ammo sifatli bo'lishi asosiy omil sanaladi;

- mahsulot ishlab chiqarishda resurslardan oqilona foydalanish zarur, bu turli chetlanishlarning oldini oladi.

Buxgalteriya hisobida ishlab chiqarish xarajatlarining analitik hisobi va tannarx kalkulyatsiyasining muhim tarkibiy qismlari sifatida “standart-kosting”, “direkt-kosting” va “ABC” (faoliyatga asoslangan xarajatlash) usullaridan foydalanish lozim. Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishda xarajatlarning har bir elementi o'z xususiyatidan kelib chiqib qo'llanishi maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda mahsulot ishlab chiqarishda ortiqcha xarajatlarning oldini olish, tannarx barqarorligini ta'minlash hamda yuqori foyda olish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bois, ilg'or xorijiy tajribalarni keng o'rganish va ularni mamlakatimiz iqtisodiyotida tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy natijalarning strategik boshqaruv hisobini tashkil etish, yuritish hamda yakuniy natijalarning samaradorligini baholash va ularni strategik istiqbolda boshqarish jarayonida tezkor o'zgartirishlar kiritib borish uchun faqat foyda ko'rsatkichi miqdorini hisobga olishning o'zi yetarli emas. Shu ko'rsatkich bilan birga, moliyaviy natijalar bo'yicha strategik ko'rsatkichlar miqdorini aniq belgilash va hisobga olishda jahon amaliyotida keng qo'llanilayotgan iqtisodiy qo'shilgan qiymat (EVA) ko'rsatkichidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi 2016-yil 13-aprel O'RQ-404-son “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi Qonuni <https://lex.uz/uz/docs/-2931253> .

2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabr. “Soliq kodeksi”, <https://lex.uz/docs/-4674902>

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevral 54-son “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida”gi Qarori. <https://lex.uz/docs/-264422>

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Qarori <https://lex.uz/docs/-4746047> .

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-maydagi PQ-262-son “G'allani yetishtirish va sotishda bozor tamoyilini joriy etishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori <https://lex.uz/docs/-6038081>

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

7. Pardayev A.X., Pardayeva Z.A. Boshqaruv hisobi: Darslik. T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019-yil.

8. J.Bahriddinov. Tovar va xizmatlar marketingi tizimida narxlarni shakllantirish va boshqaruv hisobini takomillashtirish. PhD dissertatsiya avtoreferati. TMI. 2022-yil.

9. www.lex.uz

10. www.ziyonet.uz



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, oktabr, 10-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**